

## FUQAROLIK JAMIYATIDA INSON, HUQUQ VA DAVLAT

**Numonov Mansurbek Nosirjon o'g'li**

*Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti 1-bosqich talabasi*

**Anontatsiya:** *Mazkur maqolada fuqarolik jamiyatida inson va davlat o'rta sidagi munosabatlar, bu munosabatlarda huquqning o'rni borasida so'z borgan.*

**Kalit so'zlar:** *jamiyat, ibtidoiy jamoa tuzumi, jamiyat, huquq, davlat, fuqarolik jamiyati, huquqiy davlat.*

**Annotation:** *This article deals with the relationship between the individual and the state in civil society and the role of law in this relationship.*

**Key words:** *society, primitive collective system, society, law, state, civil society, legal state*

**Аннотация:** В данной статье говорится о взаимоотношениях человека и государства в гражданском обществе, и роли права в этих отношениях.

**Ключевые слова:** общество, первобытно-коллективный строй, общество, право, государство, гражданское общество, правовое государство.

### Kirish

Jamiyat-insoniyat taraqqiyotining ma'lum bir bosqichda vujudga kelgan, o'zaro extiyojlar va maqsadlar asosiga birlashgan odamlar jamoasi. Ibtidoiy jamoa tuzumidan farqli o'laroq maqsad yashab qolish emas, rivojlanish, taraqqiy etishdir. Ijtimoiy munosabatlar esa odatlar asosida emas, huquq yordamida tartibga solinadi. O'z o'rnida davlat va huquq jamiyatning xosilasidir va bu uchlik bir-biri bilan uzviy bog'liq. Davlat huquqsiz, huquq davlatsiz, davlat va huquq esa jamiyatsiz mavjud bo'la olmaydi.

Huquqshunos olimlar, umuman olganda gumanitar soha vakillari tomonidan fuqarolik jamiyati tushunchasi ham ko'p qo'llaniladi. Shunday olimlardan biri H.T.Odilqoriyev fuqarolik jamiyatiga shunday tushuntirish beradi: «Eng umumiy tarzda lo'nda ta'rif beriladigan bo'lsa, fuqarolik jamiyati-ijtimoiy hayotning davlat ta'siri va aralashuvidan, ma'muriy tazyiqlardan holi bo'lgan hamda insonlarning xususiy turmushi sohasini tashkil etuvchi munosabatlar majmuidir.»<sup>8</sup>

Fuqarolik jamiyati-kishilik taraqqiyotining jamiyatdan keyingi bosqichi, jamiyatdan extiyojlarni to'liq qondirilishi, inson huquq va erkinliklarini butunlay ta'minlanishi, bu jarayonda davlat majburlov apparati emas fuqarolar xizmatchisi sifatida maydonga chiqishi bilan farq qiladi. Xususiy mulkchilik va bozor iqtisodiyoti rivojlanadi, davlat shaxslarning mulkiy, iqtisodiy munosabatlariga aralashmaydi, lekin mulk daxsizligini kafolatlaydi va himoya qiladi.

A.Saidov va U.Tojixonovlarning fikricha: «Fuqarolik jamiyatida kishilar bir-birlari va davlat bilan mustaqil ravishda munosabatda bo'ladilar. Bunday jamiyatda

<sup>8</sup> X.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik-Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y.- 451-bet

ijtimoiy, ma'naviy va madaniy hayotni ta'minlash, uni rivojlantirish, avloddan avlodga yetkazish davlat bilan jamoat birlashmalarining, shaxs bilan jamoaning munosabatlari ma'lum darajada mustaqilligi orqali amalga oshiriladi. Fuqarolik jamiyatidagi ijtimoiy munosabatlarda shaxs o'zining shaxsiy xususiyatlarini yo'qotmasdan ishtirok etadi, har bir shaxs o'zligini namoyon qilib, faoliyatning shakl va turlarini erkin tanlaydi.»<sup>9</sup>

Huquqiy davlat fuqarolik jamiyatining siyosiy mohiyatini, siyosiy shaklini tashkil etadi. Huquqiy davlat-avvalo, inson huquq va erkinliklari, hokimiyatni amalga oshirishda (bevosita yoki vakillari orqali) xalqning ishtiroki ta'minlanuvchi demokratik davlat. U yuksak huquqiy va siyosiy madaniyat, rivojlangan fuqarolik jamiyatini nazarda tutadi. Huquqiy davlatda fuqarolarga o'z qarashlari va e'tiqodlarini qonun doirasida himoya qilish imkoniyati ta'minlanadi. Bu, xususan, siyosiy partiylar va jamoat birlashmalarining shakllanishi va faoliyat olib borishi, siyosiy plyuralizm, so'z va matbuot erkinligi hamda shu kabilarda o'z ifodasini topadi.

«Fuqarolik jamiyat Yuksak darajada uyushgan, batartib munosabatlar tizimiga tayangan, o'zini o'zi boshqarish mexanizmlari mukammal qaror topgan jamiyatdir. Bu jamiyat sharoitida inson va fuqarolarning huquq, erkinlik hamda manfaatlarini aks ettiruvchi, muhofaza etuvchi turli-tuman uyushmalar, birlashmalar, nodavlat tashkilotlar va idoralar mavjud bo'ladi. Ular davlat hokimiyatidan mustaqil bo'lib, o'zini o'zi boshqarish tamoyili asosida aktiv faoliyat ko'rsatadi.»<sup>10</sup>

Fuqarolik jamiyatida insonning shaxsiy, iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, madaniy huquqlari va erkinliklari davlat tomonidan ta'minlanadi va kafolatlanadi. Fuqarolik jamiyat inson huquqlarini, davlat esa fuqarolarning huquqlarini ta'minlaydi. Ikkala vaziyatda ham so'z huquq to'g'risida bormoqda. Fuqarolik jamiyat bir qator o'ziga xos belgilarga ega. Ular quyidagilardan iborat:

- 1) insonning muqaddasligi, uning erkinligi, barchaning qonun oldida teng ekanligi, ijtimoiy adolatni hayotning barcha jabhasida qaror topib borishi;
- 2) ko'ppartiyaviylik, siyosiy hayot, siyosiy institutlarning, masfkura va fikrlarning xilma xilligi;
- 3) ijtimoiy hayotda jamoat birlashmalarining ahamiyati va faolligi oshib borishi;
- 4) fuqarolarnin o'zini o'zi boshqarish organlarining mavqeyi balandligi;
- 5) jamiyatni boshqarishda ommaviy axborot vositalari rolining va ta'sirining kattaligi;
- 6) ma'naviy hayotning umuminsoniy qadriyatlar asosida amalga oshirilishi.

<sup>9</sup> A.Saidov, U. Tojixonov. Davlat va huquq nazariyasi: Ikki jildli. 1-jild. Davlat nazariyasi. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2001. 236-bet.

<sup>10</sup> H. Odilqoriyev, N. Azizov, X. Madirimov. Davlat va huquq tarixi: IIV oliy ta'lim muassasalariuchun darslik. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. -328-b.

Fuqarolik jamiyatida ijtimoiy hayotga katta ahamiyat beriladi. Uning asosiy maqsadi inson hayotini saqlash, hayotiy orzularini, maqsadlarini, shu jamiyatdagi tashkilotlar ijtimoiy institutlar, guruhlar, oila va boshqa birlashmalar orqali amalga oshirishdir. Munosib hayot, har qadamda inson huquqlarning yuqoriligi, uning davlat tomondan bo'ladigan cheklov va tazyiqlarsiz yashashi, o'z extiyojlarini to'liq qondira olishi, mana nima aslida fuqarolik jamiyatini.

Inson, huquq va davlat-bu uch element fuqarolik jamiyatining tarkibiy qismlaridir. Yuqorida aytib o'tilganidek ular doimiy va uzviy aloqadadir. Fuqarolik jamiyatida ularning o'rni yoki roli qanday?

Inson har qanday jamiyatning asosiy elementi va hech bir jamiyat insonsiz mavjud bo'la olmaydi. Davlat esa muayyan hududda oliy hokimiyatni amalga oshiruvchi siyosiy tashkilot. Bu ikki element doim bir-biri bilan aloqada va ularning o'rtasida huquq vositachi sifatida qatnashadi. Jamiyatda davlat tabiiy huquqlarni sanksiyalaydi, ya'ni ularni huquq normlarida aks ettiradi. Bu uning huquqni ijod qilish funksiyasi tarkibiga kiradi. Huquq normalari orqali ijtimoiy munosabatlarni tartibga soladi, ularni o'z majburlov kuchi orqali himoya qiladi. Davlat huquq orqali nafaqat o'z yo'nalishini, balki jamiyatning ham kelajagini belgilaydi, huquq yordamida unga ta'sir ko'rsatadi. Fuqarolik jamiyatida esa davlatning roli biroz boshqacharoq. Endi uning insonlarga majburlov kuchi yordamida ta'sir ko'rsatishi, ularga tazyiq o'tkazishiga hojat yo'q. Chunki fuqarolik jamiyati siyosiy, huquqiy ongi va madaniyati yuqori bo'lgan fuqarolardan iborat bo'ladi. Ular o'z huquq va erkinliklarini o'z xoxishi bilan amalga oshiradilar, majburiyatlarini bajaradilar. Bunday jamiyatida davlat o'zining asl vazifasini bajaradi, ya'ni odamlarga xizmat qiladi, ularning yordamchisiga aylanadi. Fuqarolar o'z extiyojlarini qondirish, huquq va erkinliklaridan foydalanish, ularni himoya qilish, shaxsiy mulklari daxlsizligi kafolatlash uchun davlatdan foydalanadilar. Huquq esa ularga bunda ko'maklashadi. Har qanday fuqarolik jamiyatini shakllantirishga intilayotgan davlat qonunlarida o'zini xalq manfaatlarini ko'zlab ish olib borishini, fuqarolarga xizmat qilishini, ularning huquq va erkinliklarini ta'minlashini belgilab qo'yadi. Shu o'rinda aytib o'tish kerakki O'zbekiston Respublikasi ham avval Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov, hozrda es muhtaram yurtboshimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev boshchiligidida fuqarolik jamiyatini qurish yo'lida odimlab bormoqda va fuqarolik jamiyatini shakllantirish amalga oshirilayotgan barcha islohotlar mazmunini tashkil etmoqda.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. H.T.Odilqoriyev. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik-Toshkent: Yuridik adabiyotlar Publish, 2022-y.- 496 bet.
2. A.Saidov, U. Tojixonov. Davlat va huquq nazariyasi: Ikki jildli. 1-jild. Davlat nazariyasi. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi,2001. -336 bet.

3. H.T.Odilqoriyev, I.T.Tultiyev va boshqa.; prof. X.T.Odilqoriyev tahriri ostida. Davlat va huquq nazariyasi. Darslik.-Toshkent.: «Sharq», 2009.-568 bet
4. H. Odilqoriyev, N. Azizov, X. Madirimov.Davlat va huquq tarixi: IIV oliv ta'lif muassasalariuchun darslik. -T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2012. – 345 b.